



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

TABIATDAN FOYDALANISH OQIBATIDA YUZAGA KELADIGAN GEOEKOLOGIK MUAMMOLARNI O‘RGANISH

Sharipov Shavkat Muxamajonovich

g.f.n., dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Ismatova Nilufar Ravshan qizi

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: ismatovanilufar31@gmail.com

Annotatsiya: Tabiatning ifloslanishi tabiiy va antropogen omillar natijasida sodir bo‘ladi. Antropogen omillar bugungi kunda tabiatning barcha komponentlariga zarar yetkazmoqda. Natijada, turli ko‘lamdagi va yo‘nalishdagi geoeologik muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu geoeologik muammolarning oldini olish, ularni bartaraf etish esa dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: tabiat komponentlari, geotizim, landshaft, landshaft invarianti, geoeologik muammo, “Qizil kitob”, tuproq, o‘simlik, hayvonot, tuproq eroziyasi.

STUDY OF GEOECOLOGICAL PROBLEMS ARISING FROM THE USE OF NATURE

Sharipov Shavkat

Ismatova Nilufar

Abstract: Pollution is caused by natural and anthropogenic factors. Anthropogenic factors are damaging all components of nature today. As a result, geo-ecological problems of various scales and directions are emerging. Prevention and elimination of these geo-ecological problems is topical issue.

Keywords: components of nature, geosystem, landscape, geoeological problem, „Red book”, soil, plants, animals, erosion of soil.

Ma‘lumki, tabiiy muhitning ifloslanishi tabiiy omillar va inson xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq tarzda ro‘y beradi. Inson xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladigan ifloslanish antropogen ifloslanish deyiladi. Inson tabiatdan u yoki bu ne‘matlarni olar ekan, tabiatga o‘z maqsadi yo‘lida turli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Geotizimlarda bu ta‘sirning kuchayishi oqibatida tabiiy muvozanat buziladi va natijada, turli geoeologik muammolar kelib chiqadi. Geoeologik muammo qotib qolgan, o‘zgarmas holat bo‘lmay, dinamik o‘zgaruvchi va rivojlanuvchi, ko‘p omilli, ko‘p sonli oddiy muammolarning majmuasidir.

Geoekologik muammolarning qanday ko‘lamda vujudga kelishi hamda shakllanishiga ularga ta‘sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar majmuasi, geotizimlarning dinamik o‘zgaruvchanligi va murakkablik darajasi, ularni tashkil etuvchi komponentlarining xususiyatlari hamda o‘zaro aloqalarining barqarorligi va boshqalar ta‘sir etadi.

Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning keskinlashuvi oqibatida joylarda, ba‘zan juda katta hududlarda, turli geoekologik muammolar tarkib topmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bunday muammolar hududiy jihatdan bir-biri bilan o‘zaro aloqada va shakllanib bormoqda. Geoekologik muammolar tarqalgan maydonlari miqyosi, rivojlanish darajasi va turlariga qarab dunyo miqyosidagi, o‘lka miqyosidagi va mahalliy guruhlarga ajratiladi.

Tabiatdan foydalanish oqibatida yuzaga keladigan geoekologik muammolarni landshaftlarning qaysi komponentiga ta‘sir qilish oqibatida yuzaga kelishiga ko‘ra o‘rganilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda markazga landshaft komponentlaridan biri qo‘yiladi va u bilan bog‘liq bo‘lgan geoekologik muammolar o‘rganiladi. Har qanday tashqi ta‘sir albatta landshaft komponentlarining barchasiga ta‘sir qiladi, lekin ularning orasida eng ko‘p va birinchi bo‘lib zararlanadiganini aniqlash mumkin, bunda albatta landshaft invarianti vazifasini qaysi komponent o‘tayotganligiga ham e‘tibor berish kerak.

Havo. O‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab energiya olish maqsadida mineral yoqilg‘i turlaridan foydalanishga o‘tilishi yildan-yilga atmosferaga turli hajmda va katta miqdorda turli chiqindilarning chiqarilishiga olib keldi. 80-yillarning boshlarida elektr energiya ishlab chiqarish, po‘lat quyish va avtomobillarning harakati natijasida atmosferaga 5 mlrd tonna uglerod, 100 mln tonnadan ortiq oltingugurt va azot oksidlari chiqarilgan. Atmosferaga ko‘p miqdorda turli chiqindilarning chiqarilishi Yerdaharorat ko‘tarilishiga ham olib kelmoqda. Havo haroratining muntazam oshib borishi turli ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Havo haroratining bor-yo‘g‘i 1-2°C ga ko‘tarilishi Yevropada Arktika kontinental tundraning butunlay yo‘qolishiga, Osiyoda esa chegarasining bir necha minglab km ga janubga surilishiga olib kelishi mumkin. Havo haroratining ko‘tarilishi bir necha ming yillik muzlarning erishiga olib keladi. Bu ham juda katta geoekologik muammo. Atmosferaning ifloslanishi tabiatdan foydalanish oqibatida yuzaga keladigan eng katta geoekologik muammolardan biri hisoblanadi.

O‘simlik. O‘simliklar ham inson hayotida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan landshaft komponentidir. Inson yerlarni o‘zlashtirish maqsadida o‘rmonlarni kesadi, chorva mollarni yaylovlarda boqadi, o‘simliklarning ko‘plab turlaridan oziq-ovqat sanoatida iste‘mol maqsadida foydalanadi, imoratlar qurish, ayrim mahsulotlar ishlab chiqarish uchun daraxtlardan foydalaniladi, dorivor giyohlarni yig‘adi va h.k. Shu sababli tabiatning bu komponentidan tartibsiz va me‘yoridan ortiq foydalanish

oqibatida bir qancha geoekologik muammolar yuzaga keladi. Masalan, ayrim o‘simlik turlarining umuman yo‘qolib ketishi, o‘simlik qoplaminin siyraklashishi natijasida erozion jarayonlarning avj olishi, tuproqlar degradatsiyasi va boshqalar. Bu borada yuzaga kelayotgan muammolarning qay darajada jiddiylashib borayotganligini O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ning yangi nashrlarida ko‘rishimiz mumkin. “Qizil kitob”ning 1984-yilgi ilk marta chop etilgan nashriga O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan 163 ta tur kiritilgan. O‘tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlarga ko‘ra, ayrim turlar maydoni yanada qisqarib ketgan. Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o‘lkamiz florasiga mansub yana 138 turdagi o‘simlikni, “Qizil kitob”ga kiritish lozimligini ko‘rsatmoqda.

O‘rmonlarning to‘xtovsiz kesilib borilishining bir nechta sabablari mavjud. Shulardan biri rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining 2/3 qismi uy-ro‘zg‘or ishlarida o‘tin va boshqa maqsadlarida foydalanayotganligidir.

Nam tropik mintaqadardagi mamlakatlarda chorvachilikni rivojlantirish maqsadida o‘rmonlarni tobora ko‘proq qirqib, yangi yaylovlar tashkil qilmoqdalar. Bundan tashqari sanoat korxonalar va yo‘l qurilish maqsadlarida bir vaqtlar odam o‘tolmaydigan changalzorlar va mangra o‘rmonlari kesilib, xo‘jalik qurilishlari bunyod qilinmoqda.

Bilamizki, o‘simliklar havodagi kislorod me‘yorini normallashtirib turuvchi eng muhim manba. O‘simliklardan nooqilona foydalanish oqibatida yuzaga kelgan geoekologik muammolar: tuproqlarning eroziyaga uchrashi, ayrim o‘simlik va hayvon turlarining butunlay yo‘qolib ketishi va h.k.

Tuproq. O‘simlik, suv, tog‘ jinslari, hayvonot bilan birgalikda tuproqlar bilan bog‘liq geoekologik muammolar ham talaygina? Ayniqsa, tuproq degradatsiyasi eng keng va shiddat bilan ro‘y bermoqda.

Tuproq degradatsiyasi – jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, ular tuproqlarning funksiyasini o‘zgarishiga, xossalarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga va unumdorlikning pasayishiga olib keladi, ya‘ni tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida tuproqlarning turg‘un xossalarning buzilishi, sifatining yomonlashuvi, xo‘jalik nuqtayi nazaridan bahosining tushishi va samaradorlikning pasayishidir.

Suv. Tabiatda suvdan xo‘jasizlarcha foydalanish juda katta geoekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Suv – hayot manbayi. Suv bilan bog‘liq bo‘lgan geoekologik muammolar son jihatidan juda ko‘p. Misol sifatida birgina cho‘llashish jarayonini oladigan bo‘lsak. Orol dengizining qurishi ham suvdan tartibsiz va oxirini o‘ylamay foydalanish oqibatida kelib chiqqan juda katta geoekologik muammo. 1961-yildan e‘tiboran Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryodan keladigan suv miqdori kamayib keta boshladi. Orol dengizning qurishi har yili bir xil suratda bo‘lmagan, lekin bu jarayon hech kamaymagan. Natijada, hozirgi kunda dengiz suvi qirg‘oqdan 1961-

yilgi sathdan 25 km dan ortiq, ayrim joylarda undan ham ko‘p masofada surilib ketdi. Qurigan qismining maydoni esa 4,2 mln gektardan ortiq. Suvdan qurigan hududlar yuzasi tekis bo‘lganligi sababli yer osti suvlarining harakati juda sekin. Dengizning qurigan qismida tuz to‘planishi jadal bormoqda. Bilamizki, Orol dengizi Amudaryo va Sirdaryo daryolari uchun eroziya bazisi. Orolning qurigan qismida necha yillardan buyon sug‘oriladigan yerlardan oqib tushib daryoga quyilgan yuzlab turdagi kimyoviy moddalar bor.

Daryolar suvidan nooqilona foydalanish oqibatida daryo deltalaridagi to‘qaylar ham qurib bormoqda. U yerda yashovchi ko‘plab hayvon turlari nobud bo‘lgan yoki butunlay qirilib ketgan.

Turli zavod va fabrikalardan chiquvchi iflos suvlar, albatta, yer osti suvlarini ham ifloslaydi, ularning minerallashuvini oshirib yuboradi. Ichishga yaroqsiz holga keltiradi.

Tabiiy muhitning ifloslanishida antropogen ifloslanishning fizik, kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik va mexanik kabi turlarga ajratiladi.

Fizik ifloslanish muhitning tabiiy parametrlari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi turlarga ajratiladi: issiqlik, yorug‘lik, shovqin, elektromagnit, radiatsion va boshqalar.

Kimyoviy ifloslanish – tabiiy muhitning kimyoviy xususiyatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bunda hududga tashqaridan turli kimyoviy moddalarning kirib kelishi va ularning o‘rtacha klarkdan ortiqchaligi bilan tavsiflanadi.

Biologik ifloslanish inson organizmi uchun zararli bo‘lgan biomoddalarning hududda ko‘payishi bilan tushuntiriladi. Foydalanilayotgan geotizimga mikroorganizmlarning kirishi bakterial ifloslanish deyiladi. Muhitning biologik ifloslanishi biogen va mikrobiologik guruhlardan iborat.

Umuman olganda o‘zi tabiatdagi geoeologik muammolarning barchasi insonning tabiatdan foydalanish jarayonida tabiatga noto‘g‘ri ta’siri oqibatida kelib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipov Sh.M. “Tabiatni muhofaza qilish va geoeologiya” –Toshkent: LESSON PRESS, 2016. -146 b.
2. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoeologiya.-Toshkent: Adib,2014.-98 b.
3. Zokirov Sh.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik.-Toshkent: Universitet, 1998.-45 b.
4. Sharipov Sh.M., Allaberdiyev R.X. va boshqalar. Geoeologiya. –Toshkent: Universitet, 2017-55 b.
5. Fretwell M., Kelly D., Nanson J. Geographhy for Cambridge International AS&A Level.-Oxford: University press, 2016-345 p.
6. Academy.uz
7. Geography online.com